

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/30.07.2022.I.16.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XAYDAROV ILXOM UTKUROVICH

**KLASTER TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TO‘QIMACHILIK
SANOATINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH**

08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYA

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I-BOB.	PAXTA-TO‘QIMACHILIK” KLASSTERI INFRATUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH VA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	12
1.1	Sanoat klasterlarining mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy asoslari	12
1.2	“Paxta-to‘qimachilik” klasteri infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari va uni optimallashtirish tamoyillari	26
1.3	Talab va taklif asosida “Paxta-to‘qimachilik” klasteri mahsulotlarini eksport qilishning nazariy va amaliy jihatlari	39
	1-bob bo‘yicha xulosa	53
II-BOB.	O‘ZBEKISTONDA “PAXTA-TO‘QIMACHILIK” KLASTERLARI FAOLIYATI TAHLILI VA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH	55
2.1	O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlari hozirgi holati va uni rivojlantirish tendensiyasi holati tahlili	55
2.2.	Paxta-to‘qimachilik klasteri tarkibiy tuzilmasi va eksport faoliyati tahlili	67
2.3.	Paxta-to‘qimachilik klasteri eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish	86
	2-bob bo‘yicha xulosa	96
III-BOB.	PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERI TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	99
3.1.	Klaster siyosatini amalga oshirishning xorij tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘llari	99
3.2.	“Paxta-to‘qimachilik” klasteri infratuzilmasini optimallashtirish negizida eksport salohiyatini oshirish istiqbollari	115
3.3.	Paxta-to‘qimachilik klasteri eksport salohiyatini prognozlashtirish	126
	3-bob bo‘yicha xulosa	138
	XULOSA	140
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	143
	ILOVA	161

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon bozorida globallashuvning yanada chuqurlashuvi natijasida global qo‘shilgan qiymat zanjiriga samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosatni samarali tashkil etishda klaster tizimini qo‘llashga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Evropa Klaster Komissiyasi Evropa klasterlarining miqdoriy tahlilini o‘tkazar ekan, hozirda 3000 dan ortiq kuchli klasterlarni aniqladi, ularda Evropa ishchi kuchining 45 foizi ishlaydi, bu 54 million ish o‘rinlarini ifodalaydi. Osiyo mamlakatlarida klaster shakllanishi jarayoni faol davom etmoqda. Xususan, Xitoyda 35 million ishchiga ega 60 dan ortiq maxsus klaster zonalari mavjud¹. SHu boisdan, klaster infratuzilmasini optimallashtirish asosida to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish masalasi muhti ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda to‘qimachilik korxonalarida klaster tizimi samaradorligini ta‘minlashda tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, innovatsiyalarni keng joriy etish, strategik rivojlanishni prognozlash, resurslar muqobil taqsimotini amalga oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. To‘qimachilik korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash asosida klaster tarkibiy tuzilmasini muqobillashtirish, ishlab chiqarishni muvozanatlashtirilgan holda rivojlantirish, xom ashyo muqobil tarkibini shakllantirish asosida xarajatlarni kamaytirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarining to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga ta‘sirini baholash, innovatsion jarayonlarni kuchaytirish asosida tarmoq eksport salohiyatini oshirishni ta‘minlash ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan sanaladi.

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston iqtisodiyotida yanada yuksaltirish, eksport salohiyatini oshirishda qishloq xo‘jaligi hamda sanoat o‘zaro integratsiyalashuvi jarayonida klaster tizimini joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Paxtachilik majmuasida klasterlar tizimini qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad paxta xomashyosiga chuqur qayta ishlov berilishi natijasida Yuqori qo‘shilgan qiymatni shakllantirish asosida eksport salohiyatini oshirish sanalib,

¹<http://www.clusterobservatory.eu/index.html>.

ushbu jarayonda ishtirok etuvchi tomonlar iqtisodiy qiziqishlari mushtarakligini ta'minlash, ichki transport xarajatlarini kamaytirish, innovatsiya va raqamli texnologiyalarga asoslangan Sanoat 4.0 konsepsiyasiga asoslangan xo'jalik yuritishga imkon beruvchi modelga transformatsiyalashni amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni samarali hal etish o'z navbatida respublikamizda faoliyat yuritayotgan paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish, qo'shimcha qiymat zanjiri bo'g'inlari samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholash usulini takomillashtirish, paxta-to'qimachilik klasterlarida diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning o'rta muddatga mo'ljallangan rivojlanishini prognozlash muammolarini hal etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021 yil 16 noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 21 yanvardagi PF-53-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va Yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 31 martdagi PQ-253-son «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2019 yil 12 fevraldagi PQ-4453-sonli «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 6 martdagi PQ-4633-son "Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023 yil 26 yanvardagi PQ-23-son "Paxta xom ashyosi etishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-

quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasining 2020 yil 22 iyundagi 397-sonli “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021 yil 4 dekabrdagi 733-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning bajarilishida mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat klasterlarini tashkil etish, uni boshqarishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik olimlar A.Marshall, Dj.K.Laft, E.M.Bergman, E.J.Fezer, O‘.So‘lvell, M.J.Enrigxt, S.A.Rozenfeld, M.Porter² va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarida klasterlar faoliyatini tashkil etish masalalari bilan V.A.Bespalov, D.A.Galimov, P.A.Kalinin, A.V.Babkina, YU.S.Artamonova, D.I.Strelsov, B.Z.Milner, D.M.Begov³ va boshqalar shug‘ullanishgan.

²Маршалл А. Принципы экономической науки / А. Маршалл. -М.: Изд. группа «Прогресс», 1993. - Т.3. - 351 с.; Лафт Дж. К. Теория организации: Учебное пособие. – М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2013. – 416 с.; Bergman E.M. and Feser E.J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications / E. M. Bergman, E. J. Feser. Regionl Research Institute, WVU., 1999.; Sölvell Ö. Clusters. Balancing Evolutionary and Constructive Forces. Ivory Tower Publishers, 2008.; Enright M.J. (1996), 'Regional clusters and economic development: a research agenda; Rosenfeld S.A. Industrial-strength strategies: regional business clusters and public policy. - Washington, The Aspen Institute Community Strategies Group. - 1995. - 150 p.; Porter, M. E. Clusters of Innovation Initiative: Regional Foundations of U.S. Competitiveness. Washington, DC: Council on Competitiveness, 2005.

³Беспалов В.А. Механизмы создания и функционирования высокотехнологичных отраслевых кластеров: монография / В. А. Беспалов, В. Б. Леонтьев, Д. Б. Рыгалин и др.; ред. С. Г. Полякова. - М. : МИЭТ, 2010. - 163 с.; Галимов Д.А. Кластеры: проблемы теории и практики: монография /Д. А. Галимов, В. Н. Клюковкин. - Бийск: Алтайс. гос. техн. ун-та, 2010. – 113 с.; Калинин П.А. Формирование инновационных отраслевых кластеров в регионе. Дисс. на соискание учёной степени к.э.н. – Киров, 2020. – 198 с.; Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструментарий: Монография / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2015. – 588 с.; Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика: кол. монография / под. ред. Ю.С. Артамоновой, Б.Б. Хрусталева – Пенза: ПГУАС, 2013. – 230 с.; Стрельцов Д.И. Формирование инновационного территориального кластера промышленности строительных материалов [Текст]: дис... кан. экон. наук: Москва, 2015. – 24 с.; Мильнер Б.З. Теория организации: Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2019. -864 с.; Бегов Д.М. Эффективность формирования

O'zbekistonda klasterlarni tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlarini va tashkiliy masalalari A.SH.Bekmuradov, D.M.Mirzaxalilova, K.Xonkeldieva, B.A.Davlyatov, G'.Zaxidov, A.Soliev, Z.A.Xakimov⁴ va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, paxta-to'qimachilik klasterlari tarkibiy tuzimasini optimallashtirish asosida eksport salohiyatini oshirish masalasi etarlicha o'rganilmagan. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi va ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti F1-161. «Xalqaro standartlarni joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish» mavzusidagi fundamental (2017-2019 yy.) loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi klaster tizimini rivojlantirish asosida to'qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoat klasterlarining mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish;

регионального хлопково-текстильного кластера (на материалах Согдийской области). [Текст]: авт. дис... кан. экон. наук: Душанбе, 2020. – 24 с.

⁴Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т., 2006. – 247 с.; Мирзахалилова Д.М. Повышение конкурентоспособности текстильной промышленности Узбекистана на основе кластеризации. И.ф.н. илмий дараж. олиш учун ёзилган автореферат. - Ташкент: Института экономики АН РУз, 2012. – 24 с.; Хонкелдиева К.Р. Тўқимачилик sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyet fanlari b'yiicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. - T.:TDIU, 2021. – 24 b.; Davlatov B.A. Paxta-tўqimachilik sanoatini rivojlantirishda klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyet fanlari b'yiicha falsafa doktori (PhD) diss. - T.:TDU, 2023. – 170 b.; Zaxidov F. "Ўзбекистон engil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi". Iqtisodiyet fanlari b'yiicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. - T.:TDIU, 2017. – 24 b.; Soliev A., Hakimov Z. Klaster nazariyasi va uni amaliyotda qullatgan mamalaklar tajribasidan Namangan viloyatida foydalaniш imkoniyatlari // "Biznes-Эксперт".- № 1. - 2014, - B.52-57.; Xakimov Z.A. To'qimachilik klasterlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss. avtoref. - T.:TDIU, 2023. – 48 b.

“paxta-to‘qimachilik” klasteri infratuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish va uni optimallashtirish tamoyillarini o‘rganish;

talab va taklif asosida “paxta-to‘qimachilik” klasteri mahsulotlarini eksport qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish;

O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlarining hozirgi holati va uni rivojlantirish tendensiyasi holati tahlilini amalga oshirish;

“paxta-to‘qimachilik” klasteri tarkibiy tuzilmasi va eksport faoliyatini tahlil qilish;

“paxta-to‘qimachilik” klasteri eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholash uslubini ishlab chiqish;

klaster siyosatini amalga oshirishning xorij tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘llarini aniqlash;

“paxta-to‘qimachilik” klasteri infratuzilmasini optimallashtirish negizida eksport salohiyatini oshirish istiqbollari aniqlash;

“paxta-to‘qimachilik” klasteri eksport salohiyatini oshirishda diversifikatsiyalash siyosatini amalga oshirish samaradorligi hisoblash va istiqbolda rivojlanishini prognozlash.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekistondagi paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti to‘qimachilik klasterlarini shakllantirish va rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tanlab kuzatish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellash, ekspert baholash, korrelyasion-regression tahlil, omilli tahlil, simpleks usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta-to‘qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholashning tavsiya etilgan mezonlariga ko‘ra foydalanish darajasi indikatorlarining «juda past» (0 – 0,125), «past» (0,126 – 0,250). “o‘rta” (0,251-0,375), «yaxshi» (0,376-0,750) va “yuqori” (0,751-1,0) toifalari diapazonlarida baholash usuli taklif etilgan;

xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, bozor/raqobat matritsasi, innovatsiya, moslanuvchanlik, kichik biznes, firma-lider kabi omillar yordamida baholash tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi uchun mos keladigan "paxta-to'qimachilik" klasterining samarali modelini tanlash asoslangan;

ekonometrik usul yordamida qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini $L(x) = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m P_i * X_{ij} \rightarrow \max$ ishlab chiqish va yechimini topish asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash asoslangan;

O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining 2025-2030 yillarda eksport hajmi ko'rsatkichiga ta'sir qiluvchi omillar asosida uning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxta-to'qimachilik klasteri infratuzilmasining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini yanada oshirishda Evropa Ittifoqining barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv bo'yicha maxsus imtiyozlar tizimi (GSP+)dan foydalanishning Yuqori imkoniyatlarini asoslangan;

paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini ularning ichki salohiyati, bozordagi muvaffaqiyati, mahalliy bozor salohiyati kabi omilga ko'ra baholashning mezon va indikatorlari taklif etilgan;

paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik zanjiriga tayangan holda paxta-to'qimachilik klasterlarini toifalarga ajratish taklif etilgan;

qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasi asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash asoslangan;

paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritishining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishini prognozlashning ekonometrik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni taniqli iqtisodchi olimlarning sanoat klasterlarini shakllantirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, axborotlar bazasining milliy va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmalarining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan ilmiy manbalar va amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, paxta-to'qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholash usuli, paxtachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik zanjiriga tayangan holda paxta-to'qimachilik klasterlarini toifalarga ajratish, qo'shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini asosida paxta-to'qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritishining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilmasi, paxta-to'qimachilik klasterlarida diversifikatsiya strategiyasini qo'llash, paxta-to'qimachilik klasterlari rivojlanishini prognozlashning ekonometrik modeli bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy g'oya va takliflar, uslubiy yo'llanmalar, boshqarish texnologiyalari va usullari hamda boshqa amaliy natijalar klasterlarini shakllantirish va ularni raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategik qarorlarni ishlab chiqishga yaqindan yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan xulosa va takliflarni hisobga olgan holda paxta-to'qimachilik klasterlarining mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanishda, Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulot turlarini ishlab chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda, Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Klaster infratuzilmasini optimallashtirish asosida to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

paxta-to‘qimachilik klasterlari eksport salohiyatini baholashning tavsiya etilgan mezonlariga ko‘ra foydalanish darajasi indikatorlarining “juda past” (0 – 0,125), “past” (0,126 – 0,250). “o‘rta” (0,251-0,375), “yaxshi” (0,376-0,750) va “yuqori” (0,751-1,0) toifalari diapazonlarida taklif etilgan baholash usuli “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 18 sentabrdagi 03/23-2494-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, “ASAKA TEKSTIL” MCHJ paxta-to‘qimachilik klasteri eksport salohiyati real integral ko‘rsatkichi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 5,6 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, bozor/raqobat matritsasi, innovatsiya, moslanuvchanlik, kichik biznes, firma-lider kabi omillar yordamida baholash tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi uchun mos keladigan “paxta-to‘qimachilik” klasterining samarali modelini tanlash bo‘yicha takliflar “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 18 sentabrdagi 03/23-2494-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, “FERGANA GLOBAL TEXTILE” MCHJ paxta-to‘qimachilik klasteri eksport hajmi 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 48,3 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

ekonometrik usul yordamida qo‘shilgan qiymatni maksimallashtirish maqsad funksiyasini $L(x) = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m P_i * X_{ij} \rightarrow \max$ ishlab chiqish va yechimini topish asosida paxta-to‘qimachilik klasterlarni tashkil etish samaradorligini optimallashtirishning samarali variantini tanlash bo‘yicha takliflar “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibidagi paxta-to‘qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024-yil 18 sentabrdagi 03/23-2494-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, “ASAKA TEKSTIL” MCHJ paxta-to‘qimachilik klasteri qo‘shilgan qiymat miqdorini 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 8,9 foizga oshirish imkoni yaratilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlari uyushmasi eksport hajmiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik modeli asosida paxta-to'qimachilik klasterlarining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan eksport hajmi prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari ishlab chiqarish faoliyatiga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 18 sentabrdagi 03/23-2494-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining eksport hajmi 2025-2030-yillarda o'rtacha yiliga 4,42 foizga yoki 2030-yilda 2024-yilga nisbatan umumiy 1,58 barobarga oshishi bashoratlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsion tadqiqotning asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 3 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot hajmi 141 betdan iborat.